5-sonli Ilova
«Asia Alliance Bank» ATBda
jismoniy shaxslarning depozit hisobvaraqlarini yuritish
Tartibiga

TALAB QILIB OLINGUNCHA DEPOZIT HISOBVARAG‘INI MILLIY YOKI XORIJIY VALYUTADA OCHISH VA YURITISH BO‘YICHA JISMONIY SHAXS UCHUN OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur hujjat «Asia Alliance Bank» ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan jismoniy shaxs bilan quyida bayon etilgan shartlar asosida milliy yoki xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish va yuritish to‘g‘risida shartnoma (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzish yuzasidan rasmiy taklif (ommaviy oferta) hisoblanadi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, quyida bayon etilgan shartlarni qabul qilgan hamda:

- Mobil banking tizimida (keyingi o‘rinlarda – Tizim) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshirgan;
- talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilgan (hisobvaraq Bankka bevosita murojaat qilish orqali ochilganda),

mazkur ofertani akseptlagan jismoniy shaxs Mijozga aylanadi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq, ofertani akseptlash oferta shartlarida bayon etilgan shartlar asosida shartnoma tuzilganiga tenglashtiriladi), Bank va Mijoz esa birgalikda mazkur Shartnoma Tomonlari hisoblanadi.

1.3. Mijoz tomonidan Bankka taqdim etiladigan / Tizim orqali shakllantiriladigan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi ariza mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Shartnoma Bank va Mijoz o‘rtasida quyidagi vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi:

- Shartnoma Tizimdan foydalanish orqali tuzilgan taqdirda – Bank tomonidan Tizimda ommaviy ofertaning aksepti olingan paytdan boshlab;
- Shartnoma Mijozning Bank ofisiga murojaat qilishi orqali tuzilgan taqdirda – Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi arizasi Bank tomonidan ro‘yxatga olingan paytdan boshlab.

1.5. Oferta aksepti – Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlarining to‘liq va hech qanday shartsiz qabul qilinishi (Bankka murojaat qilingan taqdirda, Ommaviy oferta shartlariga roziligini tasdiqlash uchun arizada imzo qo‘yish yoki Tizimda Ommaviy oferta shartlariga rozilik belgisini qo‘yish) hisoblanadi.

1.6. Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i Tizimdan foydalanish orqali ochilgan taqdirda, Mijoz Tizimda hisobvaraq ochilganligi to‘g‘risida tasdiq oladi, shuningdek, Tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni qabul qiladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank Mijozga talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochadi hamda Hisobvaraqqa kelib tushadigan pul mablag‘larini kirim qilish, Hisobvaraqdan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish, o‘tkazish va berish yoki Hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi Mijozning topshiriqlarini bajarish majburiyatini oladi.

3. Hisobvaraq ochish va yuritish tartibi

3.1. Bankka murojaat qilish orqali Hisobvaraq ochish uchun Mijoz quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- hisobvaraq ochish to‘g‘risidagi ariza;
- Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa hujjatlar.

3.2. Hisobvaraq bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar ro‘yxati, hisob-kitob shakllari hamda Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

3.3. Mijozning Hisobvarag‘idan to‘lovlar Hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘i doirasida amalga oshiriladi.

3.4. Bank Mijozning Hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini Tariflarda belgilaydi. Bunda Bank foiz stavkasini 0 foiz miqdorida belgilashga haqli.

3.5. Mijozga xizmat ko‘rsatish Bank tomonidan Mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun belgilangan ish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Bankning huquq va majburiyatlari

4.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

4.1.1. Mijoz tomonidan Shartnomada belgilangan hujjatlar taqdim etilgandan so’ng Mijozga Hisobvaraq ochish;

4.1.2. Mijozga Hisobvaraqqa bevosita aloqador masalalar bo‘yicha maslahat berish;

4.1.3. Qonunchilikka muvofiq, Bankga kelib tushgan pul mablag‘larini Mijozdan va uchinchi shaxslardan naqd va naqd pulsiz shaklda Mijozning nomiga qabul qilish;

4.1.4. Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushgan pul mablag‘larini Bankga kelib tushgan paytdan e’tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmasdan kirim qilish;

4.1.5. Qonunchilikda belgilangan muddatlarda Mijozning Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarish. Hisobvaraqda mavjud pul mablag‘larini Mijozning farmoyishisiz hisobdan chiqarish qonunchilikda, shuningdek ushbu Shartnomada belgilangan hollarda Bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin;

4.1.6. Agar Bank Tariflarida talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha foiz stavkasi belgilangan bo‘lsa, Mijoz yoki uning vakillarining so‘roviga ko‘ra oyiga bir marta bepul asosda Hisobvaraq holati to‘g‘risida: pul mablag‘lari qoldig‘i, hisoblangan foizlar summasi va to‘langan foizlar summasi haqida ma’lumot taqdim etish. Mijoz yoki uning vakillari oy davomida qayta murojaat qilgan taqdirda, ko‘rsatilgan ma’lumotni taqdim etganlik uchun to‘lov Bank Tariflariga muvofiq undiriladi;

4.1.7. Mijozning so‘roviga ko‘ra ushbu Shartnomaning va Mijoz arizasining Bank tomonidan tasdiqlangan nusxalarini taqdim etish;

4.1.8. Qonunchilik talablari va vakilning vakolatlarini tasdiqlash tartibiga rioya qilingan holda, Mijoz yoki uning vakillarining birinchi talabiga ko‘ra pul mablag‘larini berishni amalga oshirish;

4.1.9. Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqamiga amalga oshirilgan operatsiyalar haqida Mijozga SMS-xabarnoma yuborish;

4.1.10. Mijozning so‘roviga ko‘ra amaldagi Tariflar va xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risida ma’lumotni taqdim etish;

4.1.11. Bank tomonidan Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib turilganda, operatsiyalar to‘xtatib turilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Mijozga uning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatib turilganligi va uning sabablari haqida bildirishnoma (xabarnoma) yuborish;

4.1.12. Hisobvaraq, Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar va Mijoz haqidagi bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning saqlanishini ta’minlash. Ushbu ma’lumotlar faqat Mijozning o‘ziga, uning vakiliga, shuningdek qonunchilikka muvofiq uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin;

4.1.13. Bank Hisobvaraqdagi mablag‘larning saqlanishi va daxlsizligini kafolatlaydi. Hisobvaraqda joylashtirilgan mablag‘larga xatlov qo‘yish yoki Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish faqat qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. Mijoz tomonidan qonunchilik buzilganligidan dalolat beruvchi faktlar mavjud bo‘lganda, Bank hisob-kitob va kassa operatsiyalarini bajarishni rad etishga haqlidir.

4.2.2. Hisobvaraqdan pul mablag‘larini akseptsiz va/yoki so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish:

- mazkur Shartnomaning 6.1. va 6.2-bandlariga muvofiq Bankka tegishli bo‘lgan summalarni undirishda;

- Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan, Hisobvaraqdan pul mablag‘larini so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarish tartibi nazarda tutilgan boshqa shartnomalarga muvofiq;
- ijro hujjatlari asosida, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.2.3. Hisobvaraqning kreditlanishi yoki debetlanishi bo‘yicha xato yozuv aniqlangan taqdirda, Mijoz bilan qo‘shimcha kelishuvsiz Hisobvaraqni debetlash yoki kreditlash yo‘li bilan tegishli tuzatishlarni amalga oshirish;

4.2.4. Hisobvaraqda mavjud bo‘lgan Mijozning pul mablag‘laridan moliyaviy resurslar manbai sifatida foydalanish, bunda Hisobvaraqqa talab qo‘yilgan taqdirda pul mablag‘larining mavjud bo‘lishini hamda Hisobvaraq egasining Hisobvaraqdagi mablag‘lar doirasida ushbu mablag‘larni hech qanday to‘sqinliksiz tasarruf etish huquqini kafolatlash;

4.2.5. Bank Tariflarida belgilangan komissiya mukofotining miqdorini bir tomonlama o‘zgartirishga, Tariflarga va ushbu Shartnomaga qo‘shimcha kelishuv tuzmasdan o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar kiritishga haqlidir, bunda o‘zgartirishlar/qo‘shimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin Mijozni bu haqda xabardor qilishi shart. Mijozni xabardor qilish Bankning tanloviga ko‘ra quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

1. Bankning www.aab.uz rasmiy veb-saytida ma’lumot joylashtirish;
2. Bank ofislaridagi axborot stendlarida e’lonlarni joylashtirish;
3. Bankning ixtiyoriga ko‘ra boshqa usul orqali.

Bank tomonidan kiritilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar yuzasidan 10 kunlik muddat ichida Mijozdan e’tiroz kelib tushmagan taqdirda, mazkur o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. Mijoz kiritilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalarga rozi bo‘lmagan taqdirda, mazkur bandda ko‘rsatilgan muddat ichida Bankka yozma ravishda rad javobini hamda Hisobvaraqni yopish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart.

4.2.6. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq, Mijozdan uni identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etishni talab qilish, Hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rab olish;

4.2.7. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Mijozning Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarini to‘xtatib turish hamda Mijozning Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarishni rad etish (Hisobvaraqqa pul mablag‘larini kirim qilish operatsiyalari bundan mustasno).

5. Mijozning huquq va majburiyatlari

5.1. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

5.1.1. Hisobvaraqni ochish va Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bankka qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etish;

5.1.2. Bankda belgilangan ish tartibiga, hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish, bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini, shuningdek, mazkur Shartnomaning 9-bo‘limida ko‘rsatilgan komplayens talablarini bajarish;

5.1.3. Shartnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlar, telefon raqami, pasport ma’lumotlari (o‘zining va ishonchli vakillarining), ishonchnomalarning bekor qilinishi, shuningdek, Tomonlarning mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa o‘zgarishlar haqida Bankni xabardor qilish. O‘z manzili, telefon raqami va pasport ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, Mijoz bu haqda tegishli o‘zgarish yuz bergan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida Bankni xabardor qilishi shart. Pasport ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, Mijoz Bankka shaxsini tasdiqlovchi yangi hujjatni taqdim etadi. Aks holda, Bankda yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning mavjud emasligi bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar uchun Bank Mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi;

5.1.4. Hisobvaraqqa xato ravishda kirim qilingan va/yoki Hisobvaraqdan xato ravishda hisobdan chiqarilgan pul mablag‘lari aniqlangan taqdirda, bu haqda darhol Bankni xabardor qilish;

5.1.5. Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun Bank Tariflariga muvofiq haq to‘lash. Mazkur Shartnomani imzolash orqali Mijoz O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-

moddasiga muvofiq, Bank xizmatlari uchun haq to‘lash maqsadida Hisobvaraqdan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarishga rozilik bildiradi;

5.1.6. Bank xizmatlari uchun vositachilik haqini to‘lash uchun Hisobvaraqda yetarli miqdorda pul mablag‘lari mavjud bo‘lishini ta’minlash;

5.1.7. Hisobvaraqdan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;

5.1.8. Bankning talabiga ko‘ra, Hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish uchun zarur bo‘lgan, Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarga taalluqli hujjatlar va ma’lumotlarni darhol taqdim etish;

5.1.9. Bankdan Hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida SMS-xabarnoma olingan taqdirda, Bank tomonidan so‘ralgan shaklda javob yuborish.

5.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Hisobvaraqni Bankka bevosita murojaat qilish orqali ochgan Mijozlar Tizimdan foydalanish orqali Hisobvaraqni masofadan boshqarish (mavjud bo‘lgan barcha operatsiyalarni amalga oshirish, Hisobvaraqni yopish) huquqiga ega;

5.2.2. o‘z Hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan pul mablag‘larini mustaqil ravishda, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yurituvchi vakili orqali tasarruf etish;

5.2.3. o‘z Hisobvarag‘iga pul mablag‘larini bank o‘tkazmasi orqali, naqd pul shaklida yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda kiritish;

5.2.4. og‘zaki yoki yozma so‘rov asosida, Bank Tariflarida talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha foiz stavkasi belgilangan bo‘lsa, Hisobvaraq holati, ya’ni ma’lumot taqdim etilgan sanadagi pul mablag‘lari qoldig‘i, hisoblangan foizlar summasi va to‘langan foizlar summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oyiga bir marta bepul olish. Mijoz tomonidan bir oy davomida takroran murojaat qilingan taqdirda, mazkur ma’lumotlarni taqdim etish uchun Bank Tariflariga muvofiq haq undiriladi;

5.2.5. Bankdan bank xizmatlari masalalari bo'yicha zarur ma'lumotlar va maslahat xizmatlarini, shuningdek operatsiyalar bajarilganligini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni olish;

5.2.6. Hisobvaraqda mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari summasini to‘liq yoki qisman talab qilib olish.

6. Bank xizmatlari uchun haq miqdori va to’lash tartibi

6.1. Mazkur Shartnoma doirasida Mijozga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun Bank tomonidan tasdiqlangan Tariflarga muvofiq haq undiriladi.

6.2. Bank tomonidan mazkur Shartnomaga muvofiq ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun vositachilik haqi Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilishi jarayonida Bank tomonidan Hisobvaraqdan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo‘li bilan undiriladi yoki Mijoz tomonidan Bank kassasiga naqd pul mablag‘larini kiritish orqali to‘lanadi.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Mijoz Bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi, pul mablag‘larini joylashtirish hamda Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishning qonuniyligi uchun to‘liq javobgar hisoblanadi.

7.2. Bank Mijozga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini o‘z vaqtida yoki noto‘g‘ri kirim qilganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

7.3. Boshqa hollarda Tomonlarning javobgarligi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuzaga keladi.

7.4. Shartnomani bajarish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar, shuningdek, Hisobvaraqqa xato ravishda kirim qilingan pul mablag‘lari, Bankka avval taqdim etilgan ma’lumotlarning o‘zgarishi hamda vakilning vakolatlari bekor qilinganligi to‘g‘risida Bankni o‘z vaqtida va/yoki to‘liq yozma ravishda xabardor qilmagan taqdirda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar uchun javobgarlik to‘liq Mijoz zimmasiga yuklanadi.

7.5. Mijoz tomonidan Bankka qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmagan hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, shuningdek, Mijozning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda to‘xtatib turilgan hollarda, Bank mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z

majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun penya va jarimalar to‘lashdan ozod etiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish tartibi

8.1. Mazkur Shartnoma 1.4-bandda ko‘rsatilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz amal qiladi.

8.2. Shartnoma Mijozning arizasiga asosan istalgan vaqtda bekor qilinishi va Hisobvaraq yopilishi mumkin.

8.3. Mijoz Bankka bevosita murojaat qilgan holda hisobvaraq yopilganda, hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘i Bank oldida qarzdorlik mavjud bo‘lmagan shart bilan, Mijozning tegishli yozma arizasi olinganidan keyin 7 (etti) kundan kechiktirmasdan Mijozga beriladi yoxud uning ko‘rsatmasiga ko‘ra boshqa hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

Tizimdan foydalanish orqali ochilgan Hisobvaraq yopilgan taqdirda, Mijoz Hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘ini Tizimda o‘zi ko‘rsatgan bank hisobvarag‘iga mustaqil ravishda o‘tkazadi. Pul mablag‘lari qoldig‘i o‘tkazilganidan so‘ng, Mijoz Tizim orqali Hisobvaraqni yopish jarayonini boshlaydi. Hisobvaraqning yopilishi Bank tomonidan Tizimda Hisobvaraq yopilganligi tasdiqlangan paytdan e’tiboran yakunlangan hisoblanadi.

8.4. Hisobvaraqda joylashtirilgan pul mablag‘larining qaytarilishi Bankning barcha mol-mulki bilan ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O‘RQ-1031-sonli «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, jismoniy shaxslarning omonatlari kafolatlash obyektlari hisoblanadi. Kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz qonunchilikda belgilangan quyidagi miqdorlarda bir bankda kompensatsiya olish huquqiga ega:

- kafolatlash obyekti qoldig’ining to‘liq hajmini, agar uning miqdori 200 (ikki yuz) million so‘m yoki undan kam bo‘lsa;
- 200 (ikki yuz) million so’mni, agar kafolatlash obyektining qoldig’i 200 (ikki yuz) million so‘mdan ko’p bo’lsa.

Omonatchining bir bankda bir nechta kafolatlanish obyektlari mavjud bo‘lgan taqdirda, kompensatsiyaning umumiy summasi Qonunda belgilangan cheklangan miqdorga muvofiq belgilanadi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

8.5. Bank hisobvarag‘i shartnomasining bekor qilinishi Mijozning Hisobvarag‘ini yopish uchun asos hisoblanadi.

8.6. Mazkur Shartnoma qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Bankning talabi bilan sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9. Komplayens talablari

9.1. Tomonlar Shartnoma doirasida amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Bankning ichki hujjatlari, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashish, sanksiyalar va eksport nazorati sohasidagi talablarga rioya etadilar.

9.2. Mijoz Shartnoma doirasida quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiya, pora berish yoki olish, firibgarlik va boshqa noqonuniy faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirmaslik;

sanksiyalar ostidagi shaxslar, tashkilotlar, banklar yoki boshqa sub’ektlar bilan qo‘llaniladigan sanksiya talablariga zid bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirmaslik;

eksport nazorati talablariga rioya qilish;

bankka mijoz, uning benefitsiar mulkdorlari, kontragentlari, operatsiyalari, shartnomalari, tovarlar (ishlar, xizmatlar), pul mablag‘larining manbalari va harakati to‘g‘risida to‘liq, haqqoniy va dolzarb ma’lumotlarni taqdim etish.

9.3. Mijoz Shartnomaning ushbu bo‘limida nazarda tutilgan talablarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan zararlar, xarajatlar, jarimalar va boshqa oqibatlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

9.4. Bank komplayens-xatarlarni baholash maqsadida Mijozdan qo‘shimcha hujjat va ma’lumotlarni so‘rashga, operatsiyalarni tekshirishga, shuningdek qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga yoki vakil banklarning talablariga muvofiq operatsiyani rad etishga, cheklashga, kechiktirishga yoki to‘xtatib turishga haqlidir.

9.5. Mijoz Shartnomaning ushbu bo‘limi talablarini buzgan taqdirda yoki Bank uchun maqbul bo’lmagan komplayens-xatar, sanksiyaviy yoki boshqa huquqiy xatar yuzaga kelganda, Bank qonunchilik va Shartnoma shartlariga muvofiq shartnomaviy munosabatlarni cheklash yoki bekor qilish huquqiga ega.

9. Boshqa shartlar

10.1. Bank ushbu Shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan arizalar, bildirishnomalar, xabarlar, so‘rovlar, talablar va boshqa huquqiy ahamiyatga molik xabarlar hamda hujjatlarni Mijozga quyidagi usullar orqali yuborishga haqlidir:

10.1.1. Elektron shaklda quyidagilar orqali:

- mobil banking tizimi;
- Hisobvaraqni ochish vaqtida Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan yoki u belgilagan tartibda Bankka ma’lum qilingan mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish;
- Bankka taqdim etilgan Omonatchining tegishli elektron pochtasi orqali.

10.1.2. Qog‘oz shaklida – Bank bo‘linmasida Mijozga topshirish yo‘li bilan yoxud Bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan Mijozning manziliga pochta jo‘natmasi yoki kurerlik xizmati orqali yuborish yo‘li bilan.

10.2. Mijoz ushbu Shartnomani bajarish bilan bog‘liq xabarlar va hujjatlarni Bankka quyidagi usullar orqali yuborishga haqlidir:

10.2.1. Tegishli funksiya Tizimda nazarda tutilgan va Mijoz uchun mavjud bo‘lsa, Tizim orqali elektron shaklda, yoxud ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan yoki Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bankning rasmiy elektron pochta manzili orqali.

10.2.2. Qog‘oz shaklida – Bank bo‘linmasiga hujjatlarni topshirish yo‘li bilan yoxud ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan Bankning yuridik manziliga pochta jo‘natmasi orqali yuborish yo‘li bilan.

10.3. Ushbu bo‘limda nazarda tutilgan usullar orqali xabarlar va hujjatlar almashinuvi Tomonlar tomonidan ushbu Shartnoma doirasidagi o‘zaro hamkorlikning maqbul usuli sifatida tan olinadi. Elektron shaklda yuborilgan xabarlar va hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda olingan va huquqiy ahamiyatga ega deb tan olinadi.

10.4. Bank tomonidan Mijozga yuborilgan xabarlar va hujjatlar quyidagi hollarda olingan deb hisoblanadi:

10.4.1. Tizim orqali yuborilganda – xabar yoki hujjat Tizimga joylashtirilgan paytdan boshlab yoxud Tizimning tegishli funksiyasi bunday vaqtni aniqlash imkonini bersa, Bank tomonidan yuborilgan paytdan boshlab.

10.4.2. SMS-xabarnoma orqali yuborilganda – Bank tomonidan Mijoz ko‘rsatgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborilgan paytdan boshlab.

10.4.3. Elektron pochta orqali yuborilganda – xabarni yetkazib berish yoki yetkazib bermaslik ma’lumotlari bilan boshqacha holat tasdiqlanmagan bo‘lsa, Bank tomonidan Mijoz ko‘rsatgan elektron pochta manziliga elektron xabar yuborilgan paytdan boshlab.

10.4.4. Bank bo‘linmasida topshirilganda – xabar yoki hujjat Mijozga imzo qo‘ydirib topshirilgan paytdan boshlab yoxud Mijoz uni olishdan yoki olishni tasdiqlovchi hujjatni imzolashdan bosh tortganligi qayd etilgan paytdan boshlab.

10.4.5. Pochta jo‘natmasi yoki kurerlik xizmati orqali yuborilganda – yetkazib berish tasdiqnomasida ko‘rsatilgan topshirilgan sanada, yoxud olishdan bosh tortish, saqlash muddati o‘tib ketishi yoki Mijoz taqdim etgan manzil bo‘yicha topshirish imkoni mavjud emasligi sababli jo‘natma Bankka qaytarilgan sanada (agar bunday tartib O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmasa).

10.5. Mijoz mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, pochta manzili va Bankka taqdim etilgan boshqa aloqa ma’lumotlari o‘zgargani haqida Bankni o‘z vaqtida xabardor qilishga majburdir. Tegishli ma’lumotlar o‘zgargligi haqidagi bildirishnoma Bank tomonidan olingunga qadar, Mijoz tomonidan avval taqdim etilgan aloqa ma’lumotlari bo‘yicha yuborilgan xabarlar va hujjatlar Mijoz ko‘rsatgan rekvizitlar bo‘yicha yuborilgan deb hisoblanadi.

10.6. Ushbu bo‘lim qoidalari Mijozning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan Hisobvaraq va bo‘yicha operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish huquqini cheklamaydi, shuningdek, agar bunday talablar qonunchilik yoki ushbu Shartnoma bilan belgilangan bo‘lsa, bildirishnomalarni yuborish shakli, tartibi va muddatlariga oid maxsus talabsharni almashtirmaydi.

10.7. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha o‘zaro da’volari Bankning ishtirokisiz ular tomonidan ko‘rib chiqiladi.

10.8. Ushbu Shartnomani tuzish, bekor qilish, bajarish bilan bog‘liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar, shuningdek kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday nizolar Tomonlar tomonidan muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal qilinishi shart. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi yoki u bilan bog‘liq nizolar va kelishmovchiliklar Bank joylashgan manzil bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudida («Asia Alliance Bank» ATBning Amaliyot boshqarmasi yoki mintaqaviy bank xizmatlari ofisi joylashgan manzili bo‘yicha) ko‘rib chiqilishi lozim.

10.9. Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga amal qiladilar.

10.10. Mijoz Bank tariflari bilan tanishib chiqqan va ularga roziligini bildiradi.

11. Bankning yuridik manzili va rekvizitlari

«Asia Alliance Bank» ATB
Yuridik manzil: Toshkent shahar,
Yashnobod tuman,
Maxtumquli ko’chasi, 2a
STIR: 207018693
IFUT: 64190 KTUT: 22921172
Bank rekvizitlari:
29802000000001095001
МФО: 01095
tel.: 71-231-60-00